

OLIIY TA'LIMDA MAGISTRLARNING IJODIY SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH SHART-SHAROITLARI

Turmatov Jaloliddin Raxmatulayevich

*A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat
pedagogika universiteti dotsenti, p.f.f.d.,
GulDU mustaqil tadqiqothisi*

Annotatsiya. Ushbu maqola oliy ta'lim muassasasi ta'lim jarayonida magistrnlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish muammosiga bag'ishlangan. Magistrnlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari va ijodiy xarakterdagi topshiriqlarning magistrlar ijodiy salohiyatini rivojlantirishdagi ahamiyati ko'rib chiqiladi.

Tayanch iboralar: ijod, ijodiy salohiyat, ijodiy xarakterdagi topshiriqlar, magistrnlarni tayyorlash, shart-sharoit, o'qitish texnologiyalari.

CONDITIONS FOR DEVELOPING THE CREATIVE COMPETENCE OF MASTERS IN HIGHER EDUCATION

Abstract. This article examines the development of creative potential in master's students in the educational process at a higher education institution. It examines the pedagogical conditions for developing creative potential in master's students and the importance of creative assignments in developing this potential.

Keywords: creativity, creative potential, creative assignments, master's training, conditions, and teaching technologies.

УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ МАГИСТРОВ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. Статья посвящена проблеме развития творческого потенциала магистров в образовательном процессе высшего учебного заведения. Рассматриваются педагогические условия развития творческого потенциала магистров и значение творческих заданий в развитии творческого потенциала магистров.

Ключевые слова: креативность, творческий потенциал, творческие задания, подготовка магистров, условия, технологии обучения.

KIRISH

Bugungi kunda jamiyatning innovatsion taraqqiyoti, ilm-fan rivojini ta'minlash, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda oliy ta'lim tizimining roli nihoyatda ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, magistrnlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish masalasi dolzarb hisoblanadi. Shuning uchun innovatsion iqtisodiyot

sharoitida ijodkor kadrlar talab qilinadi. Magistrlar kelajakda ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib boradigan, yangi g'oyalar yaratadigan va amaliy muammolarga yangicha yechim topa oladigan mutaxassislardir. Ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirish ta'lim sohasining quyidagi talablarida namoyon bo'ladi:

- ta'lim mazmunining yangilanishi yangi yondashuvlarni talab etadi. Oliy ta'limda kompetensiyaga yo'naltirilgan yondashuv, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish magistrlardan mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlashni talab qiladi. Shu sababli, ijodiy salohiyatni rivojlantirish o'quv jarayonining ajralmas qismiga aylanishi lozim.

- ilmiy-tadqiqot faoliyatining samaradorligi ijodiy salohiyatga bog'liq. Magistrlar ilmiy izlanishlar olib borar ekan, yangi g'oyalarni ilgari surish, ilmiy muammolarga yangicha va noan'anaviy yondashuv taklif etishi ijodiy salohiyatning muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

- raqamli ta'lim muhitida yangi imkoniyatlar va muammolar mavjud. Raqamli texnologiyalar ijodiy salohiyatni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi, biroq bu jarayonni boshqarish va samarali tashkil etish uchun maxsus metodik yondashuvlar zarur.

- yosh olimlarni tayyorlash siyosatida ustuvor yo'nalish. O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ilmiy salohiyatli yoshlarni qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biridir. Bu esa magistrnlarning ijodiy salohiyatini oshirishga qaratilgan tadqiqotlarning dolzarbligini yanada oshiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ijod va ijodkorlikka bo'lgan ehtiyoj insonning umumiy xususiyatidir. U ta'lim jarayonida maksimal rivojlanadi yoki so'nadi. L.S.Vigotskiyning ta'kidlashicha, "pedagogik jarayon ijodkorlik, doimiy zo'riqish va uni yengib o'tish, doimiy kombinatsiyalash va xulq-atvorning yangi shakllarini yaratish tizimi sifatida tashkil etilishi lozim. Bizning har bir fikrimiz, har bir hatti-harakatimiz va kechinmalarmiz, ya'ni, bu tashqi dunyodan olingan narsa bo'ladimi yoki faqat insonning o'zida yashaydigan va namoyon bo'ladigan aql yohud his-tuyg'uning ma'lum tuzilishi

bo'ladimi – bu yangi voqelikni yaratishga intilish, yangi narsaga erishishdir" [2, 328-bet].

T.A.Starovoytovaning fikricha, ijodiy salohiyat deganda - yangi shart-sharoitga muvofiq harakat usullarini maqbul ravishda o'zgartirishga imkon beradigan shaxsiy qobiliyatlar tizimi (ixtirochilik, tasavvur, aqlning tanqidiyligi, barcha yangiliklarga ochiqlik) va faoliyat natijalarini belgilaydigan bilimlar, ko'nikmalar, e'tiqodlar tizimi (subyekt va faoliyatni amalga oshirish yondashuvlarining yangiligi, o'ziga xosligi, noyobligi) tushuniladi, natijada shaxsni ijodiy o'zini o'zi anglash va rivojlantirishga undaydi [5].

O'tkazilgan psixologik-pedagogik adabiyotlar tahlili (A.K.Anoxin, I.A.Zimnyaya, Ye.I.Mashbis, A.I.Kochetov, V.P.Tarantey, A.I.Sherbakov, A.V.Xutorskoy va bosh.), ilmiy tadqiqotlar va pedagoglik faoliyatimiz tajribasi natijasida biz oliy ta'lim muassasalari ta'lim jarayonida magistrnlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish shart-sharoitlarini aniqladik (1-jadval).

1-jadval

Magistrnlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish shart-sharoitlari

Magistrnlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish shartlari	Magistrnlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish sharoitlari
Magistrnlarning o'z qobiliyatlarini rivojlantirishga ongli ravishda intilishi	Ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirilgan, muammoli ta'lim g'oyalari asosida tashkil etish
Magistrnlarning mustaqil fikrlash, yangilik yaratish va ijodiy faollikka bo'lgan ichki ehtiyoji	Ta'lim jarayonida ijodiy ish usullarini, innovatsion yechimlar ishlab chiqish metodlarini o'rgatish
Ilmiy muammolarni mustaqil hal qilishga tayyorlik va ilmiy izlanishga motivatsiya	Evristik bilimlarni amaliyotga tatbiq etish imkonini beruvchi metodik muhitni yaratish

Magistrlarning individual ijodiy tajribasini kengaytirishga tayyorligi	Magistrlarning ijodiy tajribasini kengaytirishga xizmat qiluvchi pedagogik usul va uslublardan foydalanish
Ijodiy sa'y-harakatlarni baholash va refleksiya qilishga tayyorlik	Magistrlarning ijodiy faoliyati natijasini refleksiv pedagogik baholash tizimidan foydalanish
Magistrlarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb qilish	Magistrlarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb qilish orqali ilmiy-ijodiy muhit yaratish

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'qitish muammosi magistrnlarning ijodiy salohiyatini boshqarish asosida yotadi, bilimlarni mustahkam va to'liq o'zlashtirishga, ularning ijodiy salohiyatlarini faol rivojlantirishga, shaxsning hissiy-irodaviy fazilatlarini samarali shakllantirishga yordam beradi. Masalan, muammoli ma'ruza shunday tuziladiki, bunda ta'lim oluvchining bilimi tadqiqotchilik faoliyatiga yo'naltiradi. Bunda ta'lim oluvchining tafakkuri va uning o'rganilayotgan muammo materialiga shaxsiy munosabati namoyon bo'ladi. Ma'ruza davomida magistrlar o'zlari uchun yangi bilimni tashkil etuvchi barcha zarur ma'lumotlarni olgunga qadar o'qituvchi tomonidan muammoli vaziyat yaratish yordamida ularning tafakkuri "ishga tushiriladi".

Ichki interfaol muhokama jarayonida magistrlar o'qituvchi bilan savollarni shakllantiradilar, ularga javob topishga harakat qiladilar yoki ularni keyingi mashg'ulotlar uchun qayd etib boradilar. Interfaol muhokamaga asoslangan fikrlash ijodiy tafakkurni rivojlantirishning samarali vositasidir.

Ta'lim jarayonida (ma'ruza va seminar mashg'ulotlarida) muammoli vaziyatlarni yaratish orqali o'qituvchi magistrnlarni shunday faoliyatga jalb qiladiki, bunda ular o'z bilimlari tizimi va hayotiy tajribasiga zid bo'lgan holatlarga duch keladilar. Amaliyot shuni ko'rsatdiki, ijodiy salohiyatni rivojlantirish nuqtai nazaridan magistrnlarning loyiha-tadqiqot faoliyatini qo'llash katta imkoniyatlarga ega. Loyiha-tadqiqot faoliyati ijodiy fikrlyadigan, ilmiy faoliyat yuritish malakalariga

ega bo'lgan kadrlarni tayyorlashni, fan yutuqlari va ilg'or tajribalarni tadqiq qilish imkoniyatlarini mustaqil tahlil qilishni, ilmiy jamoalar ishida amaliy ishtirok etish ko'nikmalarini ta'minlaydi.


Loyihaviy ta'lim yettita asosiy savolni hisobga olgan holda qarorlarni tanqidiy tahlil qilish imkonini beruvchi magistrnlarning individual va jamoaviy ijodida qo'llanilishi mumkin: kim, nima, qayerda, qachon, qanday, nega va nima uchun. Bu yerda muammoli vaziyatdan chiqish bo'yicha tavsiyalar muhokama qilinishi mumkin. Birgalikdagi faoliyat natijasida bilimlar majburan singdirilmaydi va shunchaki uzatilmaydi, balki yangi bilimlarni yuzaga keltiruvchi vaziyatlar yaratiladi. Shu bilan birga, ijodiy fikrlash faoliyatining barcha darajalari o'rganiladi: ko'rgazmali-predmetli, ko'rgazmali-obrazli va og'zaki-mantiqiy [1, 73-bet].

Masalan, 70711401-Transport vositalari muhandisligi (avtomobil transporti), 70711402-Avtomobillar va avtomobil xo'jaligi, 70712301-Mashinasozlik texnologiyasi, 70111301- Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi mutaxassisliklari bo'yicha ta'lim olayotgan magistrlar "Ilmiy tadqiqot metodologiyasi va ta'limining rivojlanish tendensiyalari" mavzusidagi loyihani bajardilar. Ular o'qituvchi bilan birgalikda "Zamonaviy ta'limning yetakchi yo'nalishlari", "Ta'limda innovatsion yondashuvlar", "Kreativ pedagogik texnologiyalar", "Raqamli pedagogika" kabi mini-loyihalar mavzularini muhokama qildilar va ishlab chiqdilar. Har bir kichik guruh nafaqat o'z muammosini nazariy jihatdan o'rgandi, balki umumta'lim maktablari, professional ta'lim va oliy ta'lim muassasalari pedagoglarining ish amaliyotidan ko'plab qiziqarli ma'lumotlarni topadi; mini-loyihani himoya qilish ketma-ketligini ishlab chiqadi. "Raqamli pedagogika" mavzusida qiziqarli munozara tashkil etiladi. "Zamonaviy ta'limning yetakchi yo'nalishlari" mavzusida ilmiy-amaliy anjuman o'tkaziladi.

Ta'lim jarayoni samarali bo'lishi, asosan, magistrantlarning **o'qishga bo'lgan ma'no hosil qiluvchi (ichki) motivlariga** tayanadi. Ichki motivlar o'z qiziqishini qondirish maqsadida o'qishga intilishda, yangi bilim, tajriba orttirish jarayonida ijobiy his-tuyg'ularga ega bo'lishda, o'zini malakali deb his qilishga intilishda namoyon bo'ladi. Shundagina magistrning o'z ijodiy salohiyatini rivojlantirish va ijodiy faoliyat usullarini o'zlashtirishga bo'lgan motivatsiyasini qayd etish mumkin.

V.P.Zinchenkning fikricha, evristik yondashuvning mohiyati shundaki, o'qituvchi va magistr shunchaki ma'lumot uzatmaydi va qabul qilmaydi, balki uni yaratish jarayonidan ajralmas bo'lgan yangi bilimlarni birgalikda izlaydi, tadqiq qiladi va yaratadi. [3, 9-b.]. Evristik ta'lim vaziyatlari yangi bilimlarni o'zlashtirish va shakllantirish jarayonini faollashtiradi. Bunday ta'limiy holatlar magistrlarning o'quv-tadqiqot faoliyatini jadallashtirish, ularning subyektiv holatini kuchaytirish hamda o'qishdan oladigan ichki qoniqish darajasini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, evristik ta'limda qo'llaniladigan **"ma'nolar zanjiri"** usuli mavjud tajriba asosida muayyan muammoni muhokama qilish, har bir ishtirokchining fikrini tinglash va yakunda bu tajribani tahlil qilib yangi bilimga chiqishga yo'naltirilgan refleksiv faoliyatni tashkil etishni nazarda tutadi. Shu tarzda yangi pedagogik bilimlar har bir ishtirokchining shaxsiy tajribasi asosida shakllanadi va boyitiladi.

Ijodiy xarakterdagi topshiriqlarning alohida guruhini erkin insho (esse), krossvordlar, so'rovnomalar, axborot-tahliliy ma'lumotnoma, magistrlarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning turli usullari tashkil etadi (1-rasm).



**1-rasm. Magistrlarning ijodiy salohiyatinin rivojlantirish uchun
ijodiy xarakterdagi topshiriqlar**

Shunday qilib, erkin insho (esse) magistr'larga pedagogik asoslar bo'yicha mustaqil ravishda fikr bildirish, shaxsiy talqin berish va berilgan ilmiy masala

bo'yicha o'z salohiyatini ishonchli tarzda asoslash imkonini beradi. Bu, o'z navbatida, ta'lim va kognitiv faoliyatning yuqori, tadqiqotga asoslangan darajasiga o'tish uchun sharoit yaratadi. Erkin insho (esse) ning afzalligi shundaki, u qat'iy rejalar, ko'rsatmalar yoki oldindan belgilangan faoliyat algoritmidan foydalanishni talab qilmaydi. Xususan, "Ilmiy tadqiqot metodologiyasi" kursini o'rganishda magistratura talabalari "Fanlarning falsafiy asoslari kerakmi?", "Bilimli inson. U kim?", "Salohiyatli o'qituvchi...", "Ta'limdagi innovatsiyalar" va boshqa savollarga javoblarni va ma'lumotlarni o'rgandilar.

Refleksiv-baholash komponenti o'z ijodiy faoliyatini anglash, o'z-o'zini tahlil qilish va o'z-o'zini baholashni nazarda tutadi. Magistratura talabalarining ijodiy salohiyati darajasini aniqlashning asosiy mezonlari sifatida shaxsning ijodiy faolligi, kognitiv mustaqilligi va ijodiy qobiliyatlari ko'rsatkichlari xizmat qiladi.

Magistrlar mustaqil ilmiy-tadqiqot faoliyatining nazorat-baholash bosqichi xilma-xil ish shakllari va usullariga ega bo'ladi. Shunday qilib, ilmiy ma'ruza shaklidagi referatlarni himoya qilish ularga og'zaki nutq texnikasini egallash uchun yaxshi imkoniyat yaratadi, bilimlarni tartibga solishga yordam beradi, ilmiy munozaraga kirishish ko'nikmalarini shakllantiradi. Tadqiqot natijalarini xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar materiallari to'plamlarida nashr etish, shuningdek, seminarlar, konferensiyalar, tanlovlarda faol ishtirok etish magistratlarga shubhasiz afzallikdir.

Magistrlik dissertatsiyasini himoya qilishning puxta o'ylangan tartibini ijobiy jihat sifatida ta'kidlanishi, bu, shubhasiz, oliy ta'limning ikkinchi bosqichi bitiruvchisining ijodiy salohiyatining muhim ko'rsatkichidir. Magistrlik dissertatsiyasini tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish ham muhim hisoblanadi [4].

XULOSA

Ilmiy va tadqiqot faoliyatida ishtirok etish orqali magistr nafaqat muammoni ko'rib chiqishni, uning ilmiy mazmunini ko'rishni o'rganadi, ilmiy tilni egallaydi, balki o'zining ijodiy salohiyatini ham ochib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Басова Н.В. Педагогика и прикладная психология: учебное пособие/ Н.В.Басова. - Ростов-на-Дону: Феникс, 1999. - 396 с.
2. Выготский Л.С. Собрание сочинений: в 6 т. / Л.С.Выготский; под. ред. А.М.Матюшкина. - Москва: Педагогика, 1983. - Т. 3.: Проблемы развития.
3. Зинченко В.П. Мир образования или образование мира / В.П.Зинченко //Мир образования. - 1996. - № 3. - С. 7-15.
4. Старовойтова Т.А. Формирование исследовательских умений у обучаемых с I и II ступени высшего образования / Т.А.Старовойтова // Итоги научных исследований учёных. МГУ имени А.А. Кулешова. – 2017 г.: материалы научно-методической конференции. 25 января- 8 февраля, 2018 г. / под. ред. Е. К. Сычёвой - Могилев: МГУ имени А.А.Кулешова, 2018. - С. 138-140.
5. Старовойтова, Т. А. Развитие творческого потенциала магистрантов / Т.А.Старовойтова // Философско-педагогические проблемы непрерывного образования: сб. науч. ст., [материалы III Междунар. науч.-практ. конф., г. Могилев] 23–24 апр. 2020 г. / под ред. М. И. Вишневого, Е. И. Снопковой. – Могилев: МГУ имени А. А. Кулешова, 2020. – С. 264–268.